



O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI  
OLİY TA'LIM, FAN VA İNNOVATSIYALAR VАЗIRLIGI  
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI  
TILLAR FAKULTETI  
O'ZBEK TİLİ VA ADABIYOTI KAFEDRASI

## FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICHI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

II AN'ANAVIY XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERİALLARI

2024-yil, 21-OKTABR

BUXORO - 2024

## **ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI**

1. B.B. Ma'murov
2. Sh.N. Murodov
3. G.R. Akramova
4. X.A. Xaitov
6. R.A. Saidova
7. U.S. Amonov
8. G.B. Rustamova
9. G.R. Mirxanova
10. S.X. Maxmudova
11. Y.U. Nurova
12. D.B. Ahmedova
13. S.N. Kenjayev
14. N.A. Bafoyeva
15. M.U. Usmonova
16. N.O. Avazova

- Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais;
- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini;
- Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo;
- Tillar fakulteti dekanı, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, a'zo;
- Tillar fakulteti dekan o'rinnbosari, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi, a'zo;

## **ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI**

1. H.T. Artikova
2. G.R. Akramova
3. X.A. Xaitov
4. R.A. Saidova
5. Sh.M. Istamova
6. M.B. Sharipova
7. F.K. Nurova
8. G.B. Rustamova
9. R.R. Xalilova
12. Sh.Sh. Nizomova
13. N.N. Mirjonov
14. M.A. Tilavova
15. H.A. Ubaydova
16. M.Y. Latipova

- Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais;
- Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, rais muovini;
- Tillar fakulteti dekanı, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi, a'zo;
- O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi, a'zo.

To'plam O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 39-son bayoni 20-bandni birinchi xatboshisida belgilangan 2024-yilga mo'ljallangan xalqaro va respublika miqqosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risidagi topshirig'i, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagি 2024-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqqosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida 76-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Buxoro davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti O'zbek va rus tillari kafedrasida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi II an'anaviy xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

### **Mas'ul muharrir:**

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

### **Taqrizchilar:**

L.F.Sharipova -filologiya fanlari doktori, dotsent  
M.I.Davronova -filologiya fanlari doktori, professori

bo'lishini, chunki har bir banda o'lim sharobidan bahramand bo'ladi, ammo Alloh ishqiga hammaga ham nasib etavermasligini, u faqat xoslargagina xosligini uqib olishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak." 2017-yil 14-yanvar. - Toshkent: «O'zbekiston», 2017.-104
2. Mallayev N.M. O'zbek adabiyoti tarixi.1-kitob.3-nashr.-Toshkent: "O'qituvchi",1976. – 664 bet.
3. Nasafiy. Xoja Ahmad Yassaviy. Toshkent: Adabiyot va san'at, 1991 16-bet.
4. Ne'matov H. Ahmad Yassaviy hayotiga oid ba'zi sanalar. O'zbek tili va adabiyoti.-1992.12-bet
5. Qur'oni Karim.Abdulaziz Mansur tarjimasi.T., 2001. 495 bet.
6. Tasavvuf saboqdari. Buxoro, 2000. 78 bet.

### **JON – JISM, JON –ISHQ MUNOSABATLARI ALISHER NAVOIY TALQINIDA**

**Madina Ibotova,**  
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ulug' shoir Alisher Navoiy she'riyatida qo'llangan jon – jism, jon –ishq munosabatlarining badiiy ifodasi xususida fikr yuritiladi. Jon, ruh, jism, ishq, nafs tushunchalari orqali ilgari surilgan g'oyalar tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Jon, ruh, jism, tana, ishq, zarra, qafas, bulbul, nur, tuproq.

Jism va jon (ruh) o'rtasidagi munosabatlar asrlar davomida falsafiy, diniy va ilmiy jihatdan muhokama qilib kelinayotgan mavzu sanaladi. Ruhsiz vujud bo'lmanidek, jismsiz ruhni ham ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Ishqsiz ruh (jon) esa mohiyatsiz jism kabidir.

Jism va ruhning o'z vazifalari mavjud. Shu bois ham Sharq she'riyatida, ayniqsa, tasavvuf she'riyatida har ikki tushuncha va ular vositasida hosil qilingan tasvir yoki obrazlarga ramziy ma'no yuklangan. Masalan, *jism* - vaqtinchalik moddiy mavjudot deb qaralgan. Jism moddiy ehtiyoj va istaklari bilan kurashish, ruhni tarbiyalash, ma'naviy rivojlanishga intilish manbasi. Tana - ruhning Xudoga yetib borishi uchun vosita. Tana ehtiyojlarini nazorat qilish, ibodat qilish va ruhni tarbiyalash kabi yo'llar bilan ruhni Xudoga yaqinlashishiga yordam beradi.

Sharq she'riyatida tana dunyoviy borliq va qiyinchiliklar bilan bog'langan bo'lsa, ruh - ruhiy yuksalish, ichki xotirjamlik va ma'rifat bilan bog'langan. Tana va ruh tasvirini berishda bir qator ramziy obrazlar vujudga kelgan. Jumladan,

tana *tuproq, gil, tog'* kabi ramzlar orqali berilsa, ruh *shamol yoki havo, olov, nur* kabi ramzlar bilan berilgan.

Alisher Navoiy lirikasida jism va jon (ruh), jon – ishq tasviri turli g'oya va maqsadlar uchun xizmat qilganligini ko'rishimiz mumkin. Shoir she'riyatida jon va jism, tana va ruh munosabatlarining ifodasini kuzatib, ular bilan bog'liq tasvirlarni quyidagi tasniflarda berishni ma'qul ko'rdik:

**Jon, vujud-Allohnning zarrasi.** Ma'lumki, butun koinot zarralardan tashkil topgan."Zarra" arabcha so'z, ko'pligi "zarrot". Mumtoz adabiyotda bu so'z butunning qismini ifodalashi bilan birga, inson tafakkuri bilan anglab bo'lmaydigan "olam"ni ifodalab keladi.

Vujudung ayladi mavjud ulusnikim, bo'lmas,  
Vujud zarrag'a mavjud bo'lmag'uncha quyosh.

*Quyosh-* Alloh timsoli. U butun mukavvanot – mavjudodni xalq qilgan. Xalq qilingan mukavvanot olami esa Uning aksidir. Jumladan, inson vujudida ham Quyoshning zarrasi mavjud. Demak, baytda *jon, vujud-Allohnning zarrasi* sifatida talqin qilingan.

Quyidagi baytda ham "Alloh – zarra" munosabati ko'zga tashlanadi. Mehr – Alloh sobit bo'lmasa, sening vujuding ham mavjud bo'lmaydi. Baytda Allohnning yaratuvchanlik sifati talqin qilingan.

Vujudi zarraning mumkin emas to sobit o'lmas *mehr*,  
Ne hojat zarra xaylidin quyosh zotig'a isbote?

**Vujud - qafas, ruh - bulbul.** Mumtoz she'riyatda vujudni qafas tashbehi bilan berish an'nana tusini olgan. Insonning hissiy yoki ruhiy jihatdan "qotib qolgan" holatlarini, uning ichki dunyosidagi "cheklanganlik" vaziyatlarini ifodalashda "qafas" metaforasiga tez-tez murojaat qilingan.

Tabiat chohidin ruhungni qutqarkim, xush ermastur,  
Qafas qaydi aro bulbulg'a bo'lmoq mubtalo asru.

Shoir baytda ajoyib tasvirni hosil qilgan. Baytda bulbul ruh timsoli, vujud zindon (qavas) ramzi sifatida tasvirlangan. Biz yuqorida tansiz ruhni yoki ruhsiz tanni tasavvur qilib bo'lmaydi, degan ta'kidni bergen edik. Xo'sh, Alisher Navoiy ruh badanni bark etishi bilan bog'liq tasvirdan qanday maqsadni ko'zлади? Bulbulning maskani bog'-u rog'lar. U erkinlikni, ozodlikni sevadi. Ruh ham erkinlikni sevadi. Buning uchun "tabiat chohi" – nafsoniy illatlardan ozod bo'lishi kerak. Ruhning asl maskani Alloh dargohi – jannat bog'laridir. Bunday maskanga faqatgina kamolga yetgan va jism qafasidan ozod ruhgina yeta oladi.

Alisher Navoiyning oshiqona g'azallarida ham oshiqning ruhiy holatining ifodasida ham *vujud - qafas* ramzidan mahorat bilan foydalangan.

Ne xayol edi yanakim, ko'ngul qushi saydini havas aylading,

Badanimg'a har soridin xadang urubon, anga qafas aylading

Ko'ngul qushini saydini istagan ma'shuqa oshiq vujudiga har tomondan yoy o'qi (xadang) otib, u (ko'ngil qushi – ruhi)ni badan qafasida bandi qildi.

**Ruh - nur, vujud - tuproq.** "Qalb bir go'sht parchasidir. Ayni paytda qalb nurlar jamlanadigan joy erur" [1.257]. Ruh va nur o'rtasidagi munosabat insonning ichki ma'rifati va ma'naviy kamoloti bilan chambarchas bog'liqdir.

“Inson ruhi mohiyatan nурдан iborat, shuning uchun inson nurni ko’rganda zavqlanadi, zulmatdan qo’rqadi. Koinotdagi barcha sababiy yaratilmalar oxir-oqibat Nur ul-anvor (Alloh)ga qaytadi [2.184].

Ruh ul nudururkim, haq anga bermish avj,

Nafs zulmatqa qolib, qilmish anga poya hubut.

Rasululloh s.a.v. hadislarida “Alloh xalq – yaratilmishni zulmatda yaratdi, so’ng unga nurni yo’lladi”, - deyiladi [3.122]. Yuqoridagi baytda shoir ruhning nурдан yaralganligini, Alloh unga “avj”-yuksalish, ko’tarilishining zaminida nurning inson ma’naviy kamolotida yo’naltiruvchi va yorituvchi rolini ta’kidlangan bo’lsa, nafs esa “zulmatda qolib” u (ruh)ni martaba, darajadan (hubut) mosuvo qolishiga sababkor bo’ladi. Demak, ruh - nur zulmatda insonning yo’lini yorituvchi, imon va umidni ifodalaydi.

Sharq she’riyatida inson tanasi ko’pincha tuproqqa qiyoslanadi, chunki tuproq tabiiylik, doimiylik va tabiiy aylanishni ifodalaydi. Tanani tuproqqa qiyoslash orqali insonning dunyo bilan aloqasi va tabiatning bir qismi ekanligiga urg’u beriladi. Shu bilan birga, tuproq insonning jismoniy mavjudligini, o’tkinchiligi va o’limini anglatadi. Bu o’xshatish esa insonni tabiatning bir bo’lagi sifatida tushuntirishga imkon beradi.

Desang falakka chiqay, foni y o’l anosirdin,

Nedinki ruhunggadur chormix bu to’rtov.

*Anosiri arba’* – to’rt unsur: havo, suv, olov va tufroq. Bu to’rt unsur inson vujudining asosi. *Falakka chiqmoq* - ruhning parvozi. Bu bilan ruhiy yuksalish va Xudoga yaqinlashish jarayonida ruhning moddiy olam chegarasidan tashqariga chiqishi va haqiqiy borliq bilan qo’shilib ketishi nazarda tutiladi. Baytda ulug’ shoir parvozga shaylangan ruh uchun to’rt anosir “chormix” ya’ni “to’rt qoziq” bo’lishi ta’kidlaydi.

Albatta, bunday tasvirlar orqali tasavvufiy g’oyalarni ilgari surilgan. So’fiy adabiyotda ruhning moddiy olam chegaralaridan qutulib, haqiqiy saodat va orom topishi orqali Ilohiy olamga ko’tarilishini tasvirlash an’ana tusini olgan. Ko’ngilni poklash va ilohiy ishq bilan to’lib-toshish orqali Qalbning parvoziga erishish mumkin. Buning uchun ruh foni y bo’lishi, ya’ni “to’rt anosir” dan qutulmog’i kerak. Baytda “to’rt anosir” “o’zlik” timsoli.

Ko’rinib turibdiki, *tana* – *vujud* tuproqdan xalq qilingani uchun yeb-ichishga, shahvoniy tuyg’ularga beriluvchan. Bu esa insonni tubanlikka mahkum etadi. Ruh esa bundan azoblanadi. Natijada tana va ruh o’rtasida ayovsiz va doimiy kurash ketadi. Ruhning g’olibligi insonning ma’naviy jihatdan yuksalishida, vujudning g’olibligi esa razolatda ko’rinadi.

#### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Ҳаққул И. Тасаввуфий ҳаёт. - Тошкент: Мовароуннахр, 2004.
2. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари. – Т.: “Янги аср авлоди”.
3. Абулҳасан Ҳужвирий. «Кашф ул маҳжуб». Техрон, «Теббиён». Фаридун Осиёбий Ишқий Зинжоний таҳрири остида.

Haydarova Dilshoda Muzaffar qizi TASAVVUF TA'LIMOTI ISTILOHLARING ILMY TAHLILI VA TALQINI.....	115
Ibotova Madina JON – JISM, JON –ISHQ MUNOSABATLARI ALISHER NAVOIY TALQINIDA.....	118
Maxmudova Sadoqat Xolmatovna SADRIDDIN SALIM BUXORIY IJODIDA VATAN MAVZUSI.....	121
Nizomova Shoxista Shodiyevna MUSTAQILLIK DAVRI SHE'RIYATIDA POETIK OBRAZ KO'RINISHLARI.....	125
Rahimqulova Mohigul Anvar QIZI JADIDCHILIKNING XALQNI SAVODXON QILISH YO'LIDAGI ISLOHOTLARI VA UNING JAHON MA'RIFATCHILIK HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	127
Rustamova Gavhar Bahron qizi, Alijonova Oydinoy "LAYLI VA MAJNUN" DOSTONIDA ONA OBRAZI.....	133
Rustamova Gavhar Bahron qizi, Umarova Gulshoda "BOBURNOMA" ASARIDA TARIXIY VA BADIY OBRAZLAR TRANFORMATSIYASI.....	135
Saidova Rayhonoy Abdug'aniyevna BADIY MATN DISKURSIDA BELGINING MATNIY-FUNKSIONAL O'RNI.....	137
Sirojova Dilyora JADIDCHILIK DAVRI O'ZBEK ADABIYOTIDA FITRAT IJODI.....	141
Xaitov Xamza Ahmadovich ZAMONAVIY ADABIYOTDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR.....	144
Sharofova Gulshoda RAUF PARFI LIRIKASIDA DENDRAR OBRAZLAR IFODASI VA BADIYATI.....	147

### **III SHO'BA. TIL VA ADABIYOTNI O'QITISHDA INNOVATSIYA HAMDA INTEGRATSIYA**

Abduvaliyeva Nodiraxon, Abduvoxidova Umidaxon NUTQ TEXNIKASI VOSITALARI VA ULAR USTIDA ISHLASHNING METODIK OMILLARI.....	151
Axtamov Izzatullo Ikromovich MAKTABGACHA TA'LIM TASHKIOTLARI MUSIQA MASHG'ULOTLARIDA O'ZBEK MUMTOZ KUY VA ASHULASINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	153
Babaxanova Dilarom Axmatxanovna O'ZBEK TILI DARSLARIDA INTERFAOL METODLARNING O'RNI.....	157
Болтаева М.Ш. ДИАЛОГОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ.....	162
Исмаилова Шахриноз Ботировна ОБОГАЩЕНИЕ СЛОВАРНОГО ЗАПАСА И ГРАММАТИЧЕСКОГО СТРОЯ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА.....	165